


01/1-02-05-93
23.09.2022-y.



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi
kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasining navbatdagi yig'ilishi**

BAYONI №14

2022- yil 23- sentabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh.A.Abdiyev Boshqarma boshlig'i v.b.
Qatnashdilar: Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari,
Komissiya a'zolari, boshqarma hamda
shahar va tuman statistika bo'limlari
xodimlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

Viloyat statistika boshqarmasi hamda shahar va tuman statistika bo'limi xodimlari tomonidan 2022- yil uchun tasdiqlangan davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, 2022- yilning III-choragi yakuni bilan qabul qilinadigan hisobot shakllari hamda ta'lim muassasalaridan olinadigan yillik statistika hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslikni yig'ilish ishtirokchilariga tushuntirish to'g'risida.

(Sh.Abdiyev, A.Suyunov, Z.Davronov, M.Tagayeva, F.Eshonkulov, J.Ulashev, Sh.Abdiyev)

Kun tartibidagi masala yuzasidan boshqarma boshlig'i v.b. Sh.Abdiyev so'zga chiqib, 2022- yil uchun tasdiqlangan davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, 2022- yilning III-choragi yakuni bilan qabul qilinadigan hisobot shakllari hamda ta'lim muassasalaridan olinadigan yillik statistika hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymasliklari to'g'risida barcha tizim xodimlarini qattiq ogohlantirib o'tdi va kelgusida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan mas'ullarga nisbatan tegishli ko'rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Jumladan, boshqarmaning Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi boshlig'i Z.Davronov so'zga chiqib, xulosa o'rnida, eng avvalo, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilganligi va bu kabi tadbirlarni o'tkazishdan maqsad yangi qonun hujjatlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bilan birga, yurtimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bu jarayonlarda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish muhim o'rin egallashini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, barcha darajadagi xodimlar tomonidan statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi subyektlarni ovora qilish, ularni asossiz davlat statistika idoralariga taklif qilish, to'lovlar undirish, o'zaro munosabatlarda sansalorlik, ta'magirlik, poraxo'rlik va boshqa ko'rinishdagi korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha xodimlarni yana bir bor xushyorlikka chaqirdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. 2022- yil uchun tasdiqlangan davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi so'zsiz ta'minlanishi hamda 2022- yilning III-choragi yakuni bilan qabul qilinadigan hisobotlar va ta'lim muassasalaridan qabul qilinadigan yillik statistika hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymasliklari yuzasidan boshqarma boshlig'i v.b. Sh.Abdiyevning bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma hamda shahar va tuman statistika bo'limlari boshliqlari:

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlarni barcha xodimlarga to'liq tanishtirib borilishini tashkil etib, ularning so'zsiz ijrosini ta'minlanishi yuzasidan shaxsiy nazorat olib borsinlar;

soha oldiga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni bajarishda har qanday ko'rinishdagi mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish va korrupsiya holatlariga yo'l qo'yilishini oldini olish bo'yicha xodimlar o'rtasida muntazam ravishda tushuntirish ishlarini tashkil etsinlar;

barcha darajadagi xodimlar tomonidan statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi subyektlarni ovora qilish, ularni asossiz Davlat statistika idoralariga taklif qilish, asossiz to'lovlar undirish, o'zaro munosabatlarda sansalorlik, ta'magirlik, poraxo'rlik va boshqa ko'rinishdagi korrupsiya holatlariga qat'iy chek qo'yilishini ta'minlasinlar va bu borada shaxsiy nazorat olib borsinlar.

3. Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov) va Axborot xizmati (Sh.Muhammadiyeva):

boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo'minov